“TASDIQLAYMAN”
«Respublika sport tibbioyti
ilmiy-amaliy markazi» direktori
_____ K.K.Sirojitdinov
_____ 20 26 yil

Ilmiy-amaliy “Tibbiyot va sport” jurnali tahririyati Nizomi

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom Ilmiy-amaliy “Tibbiyot va sport” jurnali tahririyatining (keyingi matnda “Tahririyat”, deb yuritiladi) bundan keyingi huquqiy va ijtimoiy-siyosiy asoslarini belgilaydi.

1.2. Tahririyat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni, boshqa qonun hujjatlariga binoan va mazkur Nizomga amal qilgan holda amalga oshiradi.

1.3. Tahririyat muassisi: O‘zbekiston milliy olimpiya qo‘mitasi huzuridagi «Respublika sport tibbioyti ilmiy-amaliy markazi» mas'uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinda-markaz, deb yuritiladi) .

1.4. Jurnalning rasmiy nomi - “Tibbiyot va sport”

1.5.Ilmiy-amaliy “Tibbiyot va sport” jurnali O‘zbekiston Respublikasi xududidagi va chet el davlatlari ilmiy xodimlari, Oliy o‘quv muassasalariing professor o‘qituvchilari, shifokorlar, farmatsevt xodimlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar, O‘zbekiston Rechspublikasi Sog‘liqni saqlash, Sport vazirliklari doirasida tarqatilish ko‘zda tutilgan.

Tahririyat sport va tibbiyot sohalaridagi fundamental ilmiy izlanishlarni yoritib boradi.

1.6. Muassis bilan tahririyat o‘rtasidagi munosabatlar ushbu Nizom orqali tartibga solinadi.

1.7. Jurnal har chorakda bir marta, o‘zbek, rus va ingliz tilida, A-4 formatida chop etiladi hamda elektron shaklda jurnal rasmiy saytida joylashtirilib boriladi. Muassis yoki tahririyat qarori bilan uning davriyligi yoki hajmi o‘zgarishi mumkin. Jurnalning faoliyat olib borish muddati chegaralanmagan.

1.8. Tahririyat manzili: Toshkent shahar Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 6- uy.

II. FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

2.1. Tahririyat o‘z Nizomida belgilangan dasturiy qoidalarga amal qiladi.

2.2. Tahririyatning asosiy maqsadlari:

- biotibbiyot, sport tibbiyoti, biofizika, biokimyo, psixologiya,sport psixologiyasi sohalaridagi fundamental ilmiy izlanishlar hamda tajribaviy va klinik tibbiyot yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy maqolalar chop etish, tajriba almashish, ilmiy xronikani chop etish, monografiyalarga taqriz berish va hokazolar.

2.3. Tahririyatning faoliyat turi- jurnal nashr etish.

III. MUASSISNING HUQUQLARI

3.1. Tahririyat Nizomi va qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida tahririyat faoliyatini boshqarishda ishtirok etadi.

3.2. Tahririyat Nizomini ishlab chiqishda ishtirok etadi va uni tasdiqlaydi.

3.3. Tahririyat bosh muharriri va uning o‘rinbosarini, shuningdek tahrir hay’ati a’zolarini tayinlash va ozod qilish vakolatiga ega bo‘ladi.

3.4. O‘z faoliyatiga doir xabar yoki reklama tusida bo‘lmagan e’lonni jurnal sahifasida bepul joylashtiradi.

3.5. Qo‘shgan mulkiy ulushiga muvofiq ravishda foyda va zararlar taqsimotida ishtirok etadi.

3.6. Bosmaxona tashkil etish va matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarishi mumkin.

3.7. Tahririyat faoliyati tugatilgan taqdirda kreditorlar bilan hisob- kitob qilingandan keyin qolgan mol-mulkni tegishli tartibga o‘ziga tegishli bo‘lgan qismini oladi.

IV. MUASSISNING MAJBURIYATLARI

4.1. Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta’minlaydi.

4.2. O‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib jurnalni tarqatish va obuna jarayoniga ko‘maklashadi.

4.3. Tahririyat moddiy va texnika bazasini yaratishda ko‘maklashadi, jurnalni ilmiy tomondan qo‘llab-quvvatlash, jurnal taxririyati uchun o‘z bazasida xo‘jalik hisobidagi bo‘limni tashkil etish.

4.4. Tahririyat jurnalistlarining turli vazirliklar va idoralarda, o‘quv muassasalarida, diplomatik vakolatxonalarida ish olib borishiga ko‘maklashadi.

4.5. Boshqaruv tizimini va shtatlar jadvalini ishlab chiqadi va ish haqlarini xodimlarning umumiy ishga qo‘shgan hissasidan kelib chiqib belgilaydi.

4.6. Jurnal faoliyatidan ortirilgan jamg‘arma tahririyatning faoliyatini yanada kengaytirishga, tahririyat moddiy texnika bazasini hamda xodimlarning mehnat va dam olish sharoitini yaxshilashga yo‘naltiriladi.

4.7. Senzurani amalga oshirishga, retsenziyadan o‘tkazishga, tahririyatning ijodiy faoliyatiga aralashishga, shuningdek jurnalning ishlab chiqarilishi va tarqatilishi masalalariga aralashishga haqli emas. Tahririyat Nizomida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

V. TAHRIRIYATNING HUQUQLARI

5.1. Tahririyat “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi va boshqa shu sohaga tegishli qonunlar asosida faoliyat yuritadi.

5.2. Tahririyat «Respublika sport tibbioyti ilmiy-amaliy markazi» mas'uliyati cheklangan jamiyatining xo‘jalik hisobidagi bo‘limi hisoblanib, mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega emas. Muassis tomonidan ajratilgan xizmat xonalariga va texnika vositalariga ega bo‘ladi.

5.3. Muassis bilan kelishilgan holda jurnal faoliyati yo‘nalishlarini o‘zgartirish, ushbu Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatiga ega.

5.4. O‘z mahsuloti va xizmatlarini o‘zaro kelishilgan narxlarda sotadi.

5.5. Amaldagi qonunlarda ko‘zda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanadi.

VI. TAHRIRIYATNING MAJBURIYATLARI

6.1. Jurnalni obunachilarga yetkazilishini ta’minlaydi hamda har bitta jurnal sonini jurnal saytiga joylashtirib boradi. Ko‘zda tutilgan bo‘lsa uning savdosini tashkillashtiradi.

6.2. Jurnal chiqarish faoliyatida rentabellik ta’minlanmagan taqdirda va uni nashr etish imkoniyatlari topilmagan hollarda yoxud jurnal faoliyati qonunga asosan sud tomonidan to‘xtatilganda, muassis bilan kelishilgan holda tahririyat o‘z faoliyatini to‘xtatadi yoki tugatadi.

VII. ISHNING TASHKIL ETILISHI VA MEHNAT INTIZOMI

7.1. Tahririyatning barcha xodimlari muassis va xodim o‘rtasida imzolangan mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilinadi.

7.2. Barcha xodimlarga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va muassis ma’muriyati tomonidan belgilangan mehnat tartib- qoidalari qo‘llaniladi.

7.3. Tahririyatdagi barcha ishlar belgilangan qoidalar va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

7.4. Mehnat intizomini buzgan aybdor shaxsga nisbatan muassis O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi asosida chora qo‘llaydi.

7.5. Tahririyatda asosiy ish joyi hisoblangan xodimlar qonunchilik bilan belgilangan tartibda ijtimoiy sug‘urta qilinishi mumkin.

VIII. TAHRIRIYATNI BOSHQARISH

8.1. Muassis-«Respublika sport tibbioyti ilmiy-amaliy markazi» mas'uliyati cheklangan jamiyati boshqaruvning oliy organi hisoblanadi.

8.2. Tahririyat tarkibi: bosh muharrir, uning o‘rinbosari, Ilmiy muharrir, tahrir hay’ati, tahririyat kengashi tashkil etadi.

Bosh muharrir rahbarligidagi tahrir hay’ati tomonidan boshqariladi. Tahrir hay’ati tarkibi o‘z soxasida yetakchi hisoblangan mutaxassislardan tashkil topib, muharrir tomonidan muassisga tavsiya etiladi va muassis tomonidan tasdiqlanadi.

8.3. Muharrir:

- mehnat jamoasi qarorlari va tahririyat rejalarining bajarilishini ta’minlaydi;
- mehnat qonunlari ijrosini ta’minlaydi;
- ushbu Nizomga asosan davlat organlari, korxona va tashkilotlar bilan munosabatda tahririyat nomidan muassis tomonidan berilgan ishonchnomaga asosan ish yuritadi;

8.4. Tahrir hay’ati jurnal tahririyati boshqaruvining nazorat organidir.

8.5. Tahrir hay’ati:

- Nizomga o‘zgartirish kiritishni taklif etadi;
-tahririyat faoliyatiga oid tavsiyalar beradi.

IX. IQTISODIY FAOLIYAT

9.1. Tahririyat o‘z faoliyatini xo‘jalik hisobi asosida yuritadi.

9.2.Tahririyat quyidagi manbalardan daromad oladi:

- reklama, e’lon, bildiruvlardan;

- shartnoma asosida yoritilgan maqolalar haqidan;

- markaz mablag‘lari, homiylarning ko‘magi, shuningdek jurnal obunasi va sotilishidan ko‘rilgan foyda hisobiga;

- xalqaro tashkilotlarning, O‘zbekiston hamda chet el jismoniy va yuridik shaxslarining xayriyalari;

- qonunda taqiqlanmagan boshqa manbaalar hisobidan moliyalashtiriladi;

9.3. Muassis obuna, reklama va e’lonlar narxini mustaqil belgilaydi.

X. FOYDANING TAQSIMLANISHI

10.1. Sof foyda muassis va tahririyatning o‘zaro kelishuvi asosida tahririyat faoliyatini yanada yaxshilashga yo‘naltirilishi mumkin.

10.2. Taxrir hay’atining qaroriga asosan homiylarning yordami, jurnalning obunasi, sotilishi, reklama va boshqa tur faoliyatidan ko‘rilgan foyda hisobidan taxririyat xodimlarini rag‘batlantirish va moddiy yordam ko‘rsatish muassis tomonidan amalga oshiriladi.

XI. MODDIY- TEXNIKA BAZASI

11.1. Tahririyatning moddiy- texnika bazasi muassis bergan mulk va xo‘jalik yuritish natijasida orttirilgan moddiy mablag‘laridan iborat bo‘ladi. Tahririyat ushbu mulkdan o‘z ehtiyojlari va manfaatlari yo‘lida erkin foydalanish huquqiga ega.

XII. BOSHQA MASALALAR

12.1. Tahririyatni saqlab turish sarf -xarajatlar smetasi muassis tomonidan tasdiqlanib, muharrir tomonidan imzolanadi.

12.2. Tahririyatning moliyaviy faoliyati, hisobot berishi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

12.3. Tahririyat faoliyati to‘xtatilgan taqdirda ishdan ozod etilgan xodimlar mehnat huquqlarining qonunlarda ko‘zda tutilgan barcha kafolatlaridan foydalanadilar.

XIII. TAHRIRIYATNING TUGATILISHI

13.1. Jurnalni chiqarish yoki nashr etish, muassisning yoki jurnalni ro‘yxatga olgan organning yoxud sudning qarori bilan tugatiladi.

13.2. Muassis jurnalni chiqarishni yoki nashr etishni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda muharrir yoki tahririyat xodimi xuddi shu nomda jurnal ta’sis etish masalasini qo‘yishi mumkin. Bunda jurnal qayta ro‘yxatdan o‘tkaziladi.